



**SURXONDARYO VILOYATI TUPROQLARI UNUMDORLIGINI OSHIRISH
YO‘LLARI VA TEXNOLOGIYASI.**

Payanov Otabek Nodir o‘g‘li

otabekpayanov00@gmail.com

Termiz agrotexnologiyalar va innavatsion

rivojlanish instituti assistenti

Mingnorova Farog‘at Fayzullo qizi

farogatmingnorova@gmail.com

Boboqulova Zilola Salimboy qizi

Zilolaboboqulova31@gmail.com

Termiz agrotexnologiyalar va innavatsion

rivojlanish instituti talabalari

Boboqulova Zaynab Salimboy qizi

Boboqulovazaynab6@gmail.com

BuxDU Agronomiya va biotexnologiya fakulteti

Annotatsiya: Yer resurslari va tuproq unumdorligiga oid qarorlar, Tuproq unumdorligi, tuproq resurslarining insoniyatga foydasi, tuproq unumdorligini aniqlash, tuproq turlari, insonning ta’siri, tuproq unumdorligiga o‘g‘itlarning ta’siri.

Annotation: Decisions related to land resources and soil fertility, Soil fertility, benefits of soil resources to mankind, determination of soil fertility, soil types, human influence, effect of fertilizers on soil fertility.



Аннотация: Решения о земельных ресурсах и плодородии почв, Плодородие почв, польза почвенных ресурсов для человечества, определение плодородия почв, типы почв, влияние человека, влияние удобрений на плодородие почв.

Kalit soʻzlar: Tuproq unumdorligi, tuproq turlari, tuproq resurslari, organik oʻgʻitlar, tuproqning strukturasi, qumli va qumli tuproq, kislota, ishqor, tuz, tuproq ayratsiyasi, granulometrik tarkib.

Prezidentning “Yer resurslaridan samarali foydalanish, tuproq unumdirligini oshirish yuzasidan qoʻshimcha chora- tadbirlar toʻgʻrisida” gi qarori loyihasi muhokama uchun joylashtirildi. Oʻzbekiston Respublikasida 2030- yilgacha sugʻoriladigan va lalmikor yerlar hamda yaylov hududlar tuproqlarining unumdorligini saqlash, qayta tikash va oshirish boʻyicha maqsadli dastur tasdiqlandi.

Paxta maydonlarida tuproq unimdorligini va hosildorligini oshirish, sugʻorishning yangi texnologiyasini joriy etishni qoʻllab-quvvatlash chora- tadbirlari toʻgʻrisida qaror qabul qilindi. Unga koʻra tuproq unumdorligi va paxta hosildorligini oshirish, ilmiy asoslangan almashilab ekishni, yangi turdagi sugʻorish texnologiyalarini joriy etish belgilandi.

„Tuproqlar va ularning unumdorligini muhofazalash toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi. Unga koʻra tuproqlarni himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish. Tabiiy ekologik tizimni muhofaza qilish, tuproq unumdorligidan samarali foydalanish. Tuproqqa salbiy taʼsirlarni kamaytirish kabi chora-tadbirlar amalga oshirish belgilab qoʻyildi.

Tuproq unumdorligi - tuproqning suv, oziq moddalar va boshqa qoʻshimchalar bilan taʼminlash xususiyati. Tuproq togʻ jinslaridan unumdorligi bilan farq qiladi. Unumdor tuproqlarda insonga asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini beruvchi qishloq xoʻjaligi oʻsimliklari yetishtiriladi. Yer faqat unumdorlik xususiyati tufayli qishloq xoʻjaligida ishlab chiqarish vositasiga aylangan. Tuproq unumdorligi tuproq hosil qiluvchi omillar: iqlim, relyef, tuproq



hosil qiluvchi jinslar, tabiiy va madaniy o'simliklar bilan uzviy bog'liq ammo, unumdorlik darajasida ayniqsa, yerdan foydalanish xarakteri katta ahamiyatga ega. Tuproq unumdorligining eng muhim omillari: o'simlik rivojlanishi uchun zarur oziq moddalar yetarli miqdorda bo'lishi, o'simlik o'zlashtirishi mumkin bo'lgan namning mavjudligi, yaxshi tuproq aeratsiyasi tuproqning granulometrik tarkibi, struktura holati va tuzilishi, zaharli moddalar (kislota, ishqor, tuz va xokazo) miqdori, tuproq reaksiyasi va boshqalardan iborat. Bu xususiyatlar yig'indisi tuproqning madaniylashganlik holati darajasini belgilaydi. Unumdorlikning barcha elementlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Bu elementlardan birortasining o'zgarishi boshqalariga ham ta'sir ko'rsatadi. Har xil o'simliklarning Tuproq unumdorligiga talabi turlicha bo'lganligi sababli va o'simlik biologiyasiga bog'liq holda bir tur o'simlik uchun unumdor hisoblangan tuproq boshqa tur uchun unumdor bo'lmasligi mumkin.

Ma'lumki, global iqlim o'zgarishlari hamda antropogen holatlarning faollashishi tuproq qatlami va undagi biologik xilma-xillikni saqlab qolish ayrim muammolarni keltirib chiqarmoqda. Insoniyat yer yuzasidagi eng katta va tengi yo'q bo'lgan moddiy boyligi tuproq va uning unumdorlik holatini saqlab qolish va uni oshirib borishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ustida tinmay ishlashiga to'g'ri keladi. Olimlar bu borada ko'plab tadqiqotlar o'tkazib, ma'lum darajada muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar. Biroq tuproq unumdorligini saqlash va oshirishda noan'anaviy oziq moddalaridan foydalanishning samarasi to'g'risida yetarli tadqiqotlar olib borilmagan. Bugungi kunda dunyo bo'yicha qishloq xo'jaligi sohasida mavjud resurslardan oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini saqlash va oshirib borish bilan birga ekinlarni oziqlantirish hamda qo'shimcha oziqlantirishda mineral o'g'itlardan tashqari organik o'g'itlar va noan'anaviy agrorudalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Unumdorlik- tabiiy va samarali turlarga bo'linadi. Tabiiy unumdorlik tuproqdagi oziq moddalar umumiy zahirasi bilan xarakterlanadi. Uning shakillanishi esa tuproq sharoiti, iqlim omillari hamda ona jinsiga bog'liq. Samarali ya'ni sun'iy unumdorlik inson mehnat faoliyati



(yerga ishlov berish, sug'orish, o'g'itlash, sho'rni yuvish) kabi agrotexnik tadbirlarga bog'liq. Sun'iy yo'l bilan qumlik, toshloq, botqoqlik kabi unumsiz yerlarda unumdor tuproq paydo qilish mumkin.

Tuproq unumdorligini oshirish yo'llari

O'simliklarni almashlab ekish orqali. Siderat ekinlar ekish- ko'p miqdorda tarkibida azotni, oqsil, makro va mikro elementalar, kraxmalni, turli xil organik moddalarni to'plagan o'simliklardir. Bu o'simliklarga mosh, ko'k no'xat, lyupin, soya, loviya, xantal, rasp kabilar kiradi. Ular o'zida juda ko'p organik va mineral moddalarni to'playdi. Tuproq unumdorligini oshirish maqsadida bu o'simliklar yerga qo'shib haydaladi. Uning tarkibidagi oziq modda tuproqqa o'tib uni unumdorligini oshiradi, tuproqning fizik xossasini yaxshilaydi, uni organik modda va azotga boyitadi, samaradorligini yanada oshiradi.

Turli xil mineral o'g'itlarni qo'llash orqali. Azotli, fosforli, kaliyli o'g'itlar, makro va mikro elementlarga boy elementlar.

Turli xil organik o'g'itlar qo'llash orqali. Go'ng, saprofil, gumus, siderat o'simliklar.

Turli xil o'g'itlarni to'g'ri qo'llash va to'g'ri agrotexnik tadbirlarni to'g'ri o'tkazish orqali.

To'g'ri sug'orish va sho'r yuvish orqali.

Tuproq mikroorganizmlar uchun hayot muhiti, ozuqa manbai hisoblanadi. Tuproq o'zi qattiq, suyuq, gazsimon fazalardan iborat bo'lib, iqlim, tog' jinslari, o'simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlarning o'zaro murakkab ta'siri natijasida hosil bo'ladi. Dehqonchilikning yuzaga kelishi bilan tuproqning kishilar hayotidagi ahamiyati keskin oshib bordi. Inson o'zi uchun barcha oziq- ovqat mahsulotlarini bevosita va bilvosita tuproqdan oladi. Keyingi



vaqtlarda olib borilayotgan tekshirishlar natijasida tuproqning tabiatda tutgan o'rnini juda katta ekanligi aniqlandi. Tuproq yer po'stining ustki unumdor qatlami hisoblanadi. Tuproqning strukturasini va sifatini yaxshilaydigan moddalarni kiritish: mineral va organik o'g'itlar, kislotalikni (ohak, shrot, gips) o'zgartiruvchi moddalar ildiz shakllanishini (kaliy va natriyli go'ng), kompostni, o'simlik qoldiqlarini tezlatishni anglatadi.

Qumli va qumoq tuproq. Nomidan kelib chiqqan holda, bunday tuproqlarda ko'p miqdorda qum bor, ko'pincha qo'shimcha parvarishlashni talab qiladi, ammo, o'simliklar uchun mos bo'lishi mumkin.

Qumli tuproqlar tarkibida 0,05 – 1 mm li qum zarrachalari ko'p qismi 0,01 mm dan kichik zarrachalarni tashkil qiluvchi tuproqlardir. Qumli tuproqlar, odatda, qatlamining yupqaligi, organik modda, ya'ni chirindining kamligi, suv sig'imining pastligi, o'simliklar o'sishi uchun qulay sharoit yo'qligi bilan farqlanadi.

Qumoq tuproqlar, bu tuproq turi, savzavot, meva daraxtlari, rezavor mevalar va gullar o'stirsa bo'ladi. Bu tuproqning 70% i qum va 30%i loydan iborat.

XULOSA: Unumdor tuproqlar inson uchun asosiy oziq –ovqat manbai bo'lib xizmat qiladi. Yer faqat unumdorlik xususiyati tufayli qishloq xo'jaligida foydalaniladi. Tuproqning tog' jinslaridan farqli tamoni uning unumdorligidir. Tuproq unumdorligiga ta'sir qiluvchi omillar. Iqlim, almashilab ekish, o'g'itlarning to'g'ri qo'llanilishi, tuproq aeoratsiyasi hisoblanadi. Tuproq tarkibidagi unumdorligini oshiruvchi elementlar bir –biri bilan chambarchas bog'liq. Bundan tashqari tuproqdagi mikroorganizmlar faoliyati muhim ro'l o'ynaydi. Iqlimning o'zgarishi ham tuproq unumdorligiga ta'sir ko'rsatadi. Unumdor tuproqda o'simliklar yaxshi o'sib yuqori hosil beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xoliquov.SH, Uzoqov.P, Boboxo'jayev.I "Tuproqshunoslik" Mehnat , Toshkent.2010-yil.
2. Raupova.N, Komilov.B, Sodiqova.G Tuproqshunoslikdan laboratoriya mashg'ulotlari. Toshkent.2012-yil.
3. Boboxo'jayev.I , Uzoqov .P "Tuproqshunoslik".Toshkent 1995-yil.